Annotatsiya: Maqolada zamonaviy iqtisodiy muhitda tijorat banklarining transformatsiyasi zarurati shuqur tahlil qilinadi va ushbu jarayonni takomillashtirishning institusional, texnologik hamda strategik jihatlari o‘rganiladi. Transformatsiya jarayoni doirasida bank faoliyatining raqamli modellashtirishga o‘tishi, xizmatlar spektrining diversifikatsiyasi, mijozga yo‘naltirilgan yondashuvni kengaytirish va risklarni boshqarish tizimini optimallashtirish asosiy yo‘nalishlar sifatida ajratib ko‘rsatiladi. Maqolada banklar oldida turgan muammolar – eskirgan texnologik infratuzilma, inson resurslari salohiyatining yetarli emasligi, tartibga solish mexanizmlarining dinamik rivojlanish sur‘atlariga moslashuvshan emasligi kabi omillar tizimli yondashuv asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: SWOT, transformatsiya, komparativ, kvalietativ, kvantitativ, IABS, MDH, P2B/B2B.

Abstract: The article deeply analyzes the need for the transformation of commercial banks in the modern economic environment and studies the institutional, technological and strategic aspects of improving this process. Within the framework of the transformation process, the transition to digital modeling of banking activities, diversification of the spectrum of services, expansion of the client-oriented approach and optimization of the risk management system are highlighted as the main directions. The article analyzes the problems facing banks - outdated technological infrastructure, insufficient human resource capacity, and inflexibility of regulatory mechanisms to the dynamic pace of development, based on a systematic approach.

Key words: SWOT, Transformation, Comparative, Qualitative, Quantitative, IEBI, SIS, P2B/B2B.

Аннотация: В статье глубоко анализируется необходимость трансформации коммерческих банков в современных экономических условиях, рассматриваются институциональные, технологические и стратегические аспекты совершенствования этого процесса. В рамках процесса трансформации в качестве основных направлений выделяются переход к цифровому моделированию банковской деятельности, диверсификация спектра услуг, расширение клиентоориентированности и оптимизация системы управления рисками. На основе системного подхода анализируются проблемы, стоящие перед банками: устаревшая технологическая инфраструктура, недостаточный кадровый потенциал, неадаптивность регуляторных механизмов к динамичным темпам развития.

Ключевые слова: SWOT, Трансформация, Сравнительный, Качественный, Количественный, ИАБЦ, МДХ, P2B/B2B.

KIRISH

Global iqtisodiy makondagi tezkor raqamli transformatsiyalar va bozordagi keskin raqobat sharoitida tijorat banklarining an‘anaviy faoliyat modeli endi o‘z dolzarbligini yo‘qotmoqda. Bozorning yangi talablariga moslashish, mijozlar ehtiyojlarini yanada shuqurroq tahlil qilish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash bugungi kunda banklar oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi bank sektorini tubdan isloh qilish, yangi biznes modellarni ishlab shiqish va xizmatlar ko‘rsatish sifatiga yangi bosqishga olib shiqishni taqozo etmoqda.

Ushbu maqolada tijorat banklarining transformatsiya jarayoni institusional, texnologik va strategik jihatlar nuqtai nazaridan har tomonlama tahlil qilinadi. O‘zbekiston tijorat banklarining mavjud holati va xalqaro amaliyot bilan taqqoslanishi asosida, transformatsiya jarayonini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari aniqlanadi. Tadqiqot davomida banklar faoliyatining zamonaviy sharoitga moslashuvshanligini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirish va samarali boshqaruv tizimini shakllantirish bo‘yisha tavsiyalar ishlab shiqiladi. Mazkur tadqiqot milliy bank tizimining raqobatbardoshligini kushaytirishga va barqaror iqtisodiy o‘sishga zamin yaratishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda bank tizimida raqamli transformasiya jarayonlari iqtisodiy barqarorlik, strategik boshqaruv va innovasion rivojlanishning eng muhim omillaridan biri sifatida keng ilmiy tadqiqotlarga sabab bo'lmoqda. Xususan, O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish, ularning samaradorligini oshirish va global tajribaga moslashish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy olimlardan Sh. X. Aminova o'z tadqiqotida raqamli transformasiyaning banklar faoliyatiga ta'sirini atroflicha tahlil qilib, bu jarayon iqtisodiy o'sishni tezlashtirishi va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishini ta'kidlaydi [1]. A. K. Guliev esa tijorat banklarining strategik transformasiyasi jarayonida xalqaro tajriba va milliy amaliyotni qiyosiy o'rganib, O'zbekiston sharoitida transformasiya zarurligini ilmiy asoslab beradi [2]. V. M. Petrovning tadqiqotlari esa institutsional transformasiya va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning nazariy jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, raqamli islohotlarning moliya tizimidagi rolini yoritadi [3].

Tijorat banklari faoliyatida raqamli transformasiyaning nazariy va amaliy asoslari M. A. Timurxonova tomonidan chuqur tadqiq etilib, bank xizmatlarida innovasion yechimlar va mijozlarga qulaylik yaratish mexanizmlari ko'rsatib o'tilgan [4]. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maxsus hisobotida tijorat banklarining transformasiyasi va innovasion rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinib, moliya tizimini modernizatsiya qilish ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan [7].

Xorijiy manbalarda ham banklarning raqamli transformasiyasi keng muhokama qilingan. Masalan, S. Davies va R. Jones tijorat banklaridagi global raqamli tendensiyalarni tahlil qilib, bu jarayonning yangi biznes modellariga olib kelishini asoslab bergan [5]. P. Anderson o'z asarida raqamli davrda banklarning transformasiya strategiyalarini chuqur o'rganib, innovasion texnologiyalarni joriy etishdagi amaliy jihatlarni ko'rsatadi [6]. Shuningdek, I. M. Kishin raqamli davrda risklarni boshqarish masalalariga e'tibor qaratib, bank faoliyatidagi xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha case-study tahlillarini taqdim etadi [8].

Y. Kim va J. Lee tomonidan o'tkazilgan tadqiqot bank tizimiga texnologik o'zgarishlarning ta'sirini turli mamlakatlar misolida qiyosiy tahlil qilgan bo'lib, raqamli transformasiyaning ijobiy natijalarini ko'rsatadi [9]. Shu bilan birga, J. Xu raqamli transformasiyaning strategik boshqaruvdagi o'rnini o'rganib, moliyaviy sektor rivojida uzoq muddatli natijalarga erishish uchun kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi [10].

Xalqaro moliya konsalting kompaniyalari ham bank tizimida raqamli islohotlarning ahamiyatini keng yoritgan. Jumladan, Ernst & Young tomonidan o'tkazilgan "Global Bank Risk Management Survey" hisobotida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali risklarni samarali boshqarish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi [11]. Shuningdek, O'zbekistondagi so'nggi yillik hisobotlarda ham tijorat banklari faoliyatida raqamli yangiliklarning ahamiyati alohida qayd etilgan [12].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, banklarning raqamli transformasiyasi nafaqat texnologik modernizatsiya jarayoni, balki iqtisodiy barqarorlik, innovasion rivojlanish va xalqaro integratsiya jarayonlarining ham muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarining transformatsiya jarayonini chuqur o'rganish maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Avvalo, tizimli tahlil usuli orqali O'zbekiston tijorat banklarining amaldagi faoliyat ko'rsatkichlari, transformatsiya strategiyalari va institutsional tuzilmasi o'rganildi. Keyingi bosqishda xalqaro tajribani solishtirma tahlil (komparativ analiz) asosida o'rganish orqali ilg'or bank tizimlarida qo'llanilayotgan innovasion yondashuvlar va ularning natijalari tahlil qilindi.

Tadqiqotda sifatli (kvalitativ) va miqdoriy (kvantitativ) usullar uyg'unlashtirildi. Sifatli tahlil banklar strategik hujjatlari, normativ-huquqiy baza hamda amaliyot faoliyati materiallarini o'rganish orqali amalga oshirildi. Miqdoriy tahlil esa bank ko'rsatkichlari (aktivlar o'sishi, xizmatlar darajasi, mijozlar soni va boshqalar) asosida statistik usullar yordamida bajarildi.

Shuningdek, SWOT-tahlil yordamida tijorat banklarining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar va xavf-xatarlar aniqlanib, transformatsiya jarayonini takomillashtirish bo'yicha amaliyot tavsiyalari ishlab shiqildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – tijorat banklarining transformatsiya mexanizmlarini milliy va xalqaro tajriba asosida tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan, real sektor ehtiyojlariga mos tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, milliy daromadning umumiy miqdori va uni qayta taqsimlashning instrumentlari iqtisodiy tizim amal qilishining samaradorligini belgilab beradi. Bu ijtimoiy munosabatlar, jamiyatning sosial tuzilishi, iqtisodiy agentlar harakatining motivasiyalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Rivojlangan davlatlarda ilmiy-texnika taraqqiyoti real ish haqini oshirib, turmush sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Rivojlanayotgan davlatlarda esa bu jarayon

sekin bormoqda: real ish haqi sekin o'smoqda, turmush darajasi pastligicha qolmoqda, u barqaror tus olmayapti, eksport

qilinayotgan tovarlar narxi import tovarlari narxiga nisbatan sekin oshmoqda. Bu iste'mol standartlariga ham salbiy ta'sir qilib, aholi turmush farovonligini sezilarli oshirishga yo'l bermayapti.[3]

Raqamli transformatsiyaning moliyaviy saktor bortalab qilgandagi o'zgarishlar bank ishi uchun qonunchilik joylashtirmoq yangi texnologiyalar va geosiyosiy dinamikasi. Bu o'z ichiga oladi moslashish tartibga soluvchi bog'liq risklarni boshqarishda raqamli bankni qo'llab-quvvatlash uchun ramkalar.[9]

Tijorat banklarini transformatsiya qilish bilan bog'liq muammo va hatarlar.

Transformatsiyaning ta'sirida bank faoliyatida quyidagi hatarlar paydo bo'lishi aniqlandi:

1. Strategik hatar. Moliya bozoriga yangi va innovasion banklarning, shu jumladan moliya institutlarining kirib kelishi oqibatida regulyatorlar tomonidan yangi sheklovlar joriy qilinishi extimoli mavjud. Bu esa o'z navbatida faoliyatning daromadlilikiga ta'sir qiladi.

2. Operasion hatarlar. Bank faoliyatida zamonaviy bir turdagi texnologiyalarning boshqa banklarda ham joriy qilinishi bilan bog'liq hatarlar.

Bunga misol tariqasida "IABS" bank tizimining O'zbekistondagi qator banklar faoliyatiga kirib borishini aytishimiz mumkin. Mazkur holatda, aynan bir tashkilot, yoki o'zaro aloqador bir guruh tashkilotlarga tizimning bog'lanib qolish o'zi bilan qator yuqori hatarlarni keltirib shiqaradi.

3. Ichki nazorat va havfsizlik tizimining murakkablashishi bilan bog'liq hatarlar. Yuqoridagi bobda keltirilgan strategiya doirasida P2B/B2B platformalarini tadbiq qilish keltirilgan bo'lib, muzkur platforma yaratilishi orqali bank ma'lumotlari uchinchi shaxslarga chiqib ketish xatarlari mavjud. Shuningdek, bank mahsulotlarining raqamlashtirilishi o'ziga xos kiber xujum kabi xatarlarni keltirib chiqaradi.

Ernst&Young tomonidan banklar orasida o'tkazilgan so'rovnoma asosan, mijozlarning shaxsiy ma'lumotlarini yo'qotish borasida banklarda xavotir va hatarlar yuqoriligi aniqlandi:



1-rasm. Ernst&Young tomonidan banklar orasida o'tkazilgan so'rovnoma.[10]

Transformatsiya strategiyasi chora-tadbirlarini amalga oshirishda, shu jumladan hatarlarni boshqarish bo'linmalari faoliyatini optimizatsiya qilishda qator muammolar mavjud.

Yuqoridagi tahlillarga ko'ra yirik banklarda yangiliklar (nou-xau) joriy etilishi qiyinchiliklar bilan amalga oshirilishi sababali, strategiya amalga oshirilishida ayrim chora-tadbirlarning tarmoq jadvalidan ortda qolishi qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston bank-moliya sektoriga regulyator tomonidan o'rnatilgan sheklovlarning hamda amaldagi qonunshilikning talablari bugungi kunda jaxon banklari tomonidan amalga oshirilayotgan ayrim innovasion yondashuvlarga zid ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Tijorat banklarida transformatsiya amaliyotini qo'llash samaradorligi va istiqbollari.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy internet (vab) sahifasiga joylashtirilgan bank sektorining oxirgi 5 yillik asosiy ko'rsatkishlarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

1-jadval. O'zbekiston tijorat banklarining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd. so'm)[11]

2019										
№	Bank nomi	Kredit portfeli	Majburiyatlar	Depozit	Daromadlar		Harajatlar			Sof foyda
					Foizli	Foizsiz	Foizli	Foizsiz	Operasion	
1	O'zmilliybank	54 988,6	53 463,9	15 283,8	4 375,7	1 603,2	2 830,2	238,8	731,5	1 043,6
2	Asaka bank	26 321,8	28 570,3	8 098,5	2 573,6	880,6	1 713,6	227,0	360,6	166,6
3	Xalk bank	12 407,3	12 973,4	7 563,3	2 049,6	785,1	1 335,6	211,1	869,2	104,8
4	Aziya Alyans bank	1 526,2	1 974,1	1 569,1	297,5	146,4	191,9	46,9	140,6	40,4
5	Poytaxt bank	107,9	101,5	99,1	22,9	5,2	2,1	1,3	12,5	7,3
6	O'zSQB	29 442,3	28 645,3	9 003,9	2 516,1	1 422,1	1 458,7	184,7	658,3	704,5
7	Ipoteka bank	19 792,8	19 857,5	7 787,3	2 279,8	537,7	1 249,3	138,0	604,5	430,1
8	Agrobank	15 864,6	13 860,8	5 454,3	2 267,1	1 225,8	1 540,3	834,0	722,4	170,7
9	Kishlok kurilish bank	11 446,4	11 263,6	2 931,7	1 681,5	199,4	1 159,0	44,3	299,7	250,8
10	Turon bank	4 263,7	4 888,3	1 652,8	437,5	108,0	224,0	25,9	167,2	84,2
11	Mikrokredit bank	4 772,4	4 265,2	1 392,4	721,5	216,8	403,3	92,5	287,8	6,8
12	Aloka bank	5 601,8	5 945,4	4 864,2	1 152,2	192,8	776,7	68,2	244,5	200,7
13	Ipak yuli bank	3 719,1	4 599,5	2 035,8	633,3	365,6	281,6	91,2	267,8	210,2
14	Kapital bank	2 953,3	4 829,9	4 497,0	681,3	369,3	481,8	119,9	226,8	113,5
15	Invest Finans bank	2 985,9	3 968,3	2 989,1	486,1	185,6	314,7	91,3	153,6	86,9
16	Universal bank	533,5	652,4	584,5	99,3	27,9	51,0	7,1	46,6	16,4
17	Uzagroeksport-bank	94,5	50,1	39,1	18,7	3,1	3,4	1,0	8,9	3,8
18	Madad invest bank	143,8	56,2	37,8	27,5	4,3	1,0	1,3	7,7	15,5
19	Orient Finans bank	2 432,8	3 441,3	2 734,4	479,2	229,4	199,9	73,8	134,5	232,9
20	Trast bank	1 737,2	2 798,8	2 652,2	428,6	193,8	149,4	30,9	153,6	197,2
21	Davr bank	944,7	1 213,1	845,3	203,9	59,5	79,1	20,1	62,4	76,5
22	Turkiston bank	804,1	884,7	748,0	109,5	56,5	65,8	40,2	26,3	24,7
23	Ravnak bank	403,8	479,2	432,2	66,0	18,4	24,0	6,7	29,1	12,2
24	Xay-Tek bank	247,2	234,7	160,5	35,7	23,1	11,4	14,7	17,5	10,7
25	Xamkor bank	6 004,6	7 700,1	3 259,7	1 423,4	560,9	883,4	195,1	393,8	301,6
26	UzKDB bank	740,5	3 302,3	3 281,7	163,2	72,7	28,8	19,0	78,4	86,7
27	Savdogar bank	748,0	899,3	667,2	185,7	47,5	128,1	12,8	71,9	13,7
28	Ziraat bank	410,4	496,1	300,9	68,0	66,8	13,3	10,5	23,0	63,5
29	DB Banka Saderat Irana	5,4	32,7	27,9	9,1	2,2	0,2	0,1	3,5	5,8
30	Tenge Bank	135,9	248,0	15,2	6,7	9,7	0,4	7,5	10,1	-1,7
	Jami	211 580,5	221 696,0	91 009,0	25 500,2	9 619,5	15 601,8	2 855,8	6 814,3	4 680,7

2020										
1	O'zmilliybank	65 597,9	65 988,0	17 194,4	5 921,8	1 679,4	3 283,4	367,1	832,7	905,4
2	Asaka bank	34 122,3	39 092,7	9 704,8	3 409,5	1 761,7	2 433,5	461,6	442,9	340,6
3	Xalk bank	18 792,1	21 541,6	10 174,0	3 945,2	1 117,4	2 756,6	208,4	1 033,8	505,1
4	Aziya Alyans bank	1 851,5	2 597,3	2 121,4	405,2	173,8	261,2	59,8	148,6	47,1
5	Poytaxt bank	110,3	77,6	74,3	33,2	8,2	1,6	2,5	16,3	16,2
6	O'zSQB	39 898,2	42 340,3	11 437,1	3 646,2	1 690,7	2 022,1	285,3	774,9	798,2
7	Ipoteka bank	24 304,2	28 135,6	9 499,4	3 197,4	774,9	1 802,4	223,7	659,0	482,7
8	Agrobank	24 996,6	25 839,8	9 037,5	4 286,3	905,3	3 118,5	496,5	951,3	254,9
9	Kishlok kurilish bank	13 823,1	13 509,5	3 776,6	2 140,8	232,6	1 566,9	92,9	318,8	223,7
10	Turon bank	6 669,1	7 503,9	2 116,4	683,5	128,4	413,2	28,2	199,7	115,2
11	Mikrokredit bank	8 539,8	8 544,6	2 382,7	1 400,9	323,1	874,0	142,3	383,1	100,0
12	Aloka bank	5 705,9	6 539,6	4 924,1	1 185,9	294,5	819,3	170,1	264,5	170,0
13	Ipak yuli bank	4 946,9	5 765,5	2 932,2	1 044,7	403,3	497,3	125,4	335,4	251,2
14	Kapital bank	4 454,8	6 424,5	6 051,6	1 001,6	499,0	746,2	220,8	293,1	135,6
15	Invest Finans bank	3 072,8	3 988,5	3 144,3	599,9	237,0	399,1	101,0	191,9	103,5
16	Universal bank	792,8	934,9	787,6	197,2	54,3	136,6	17,7	60,9	27,0
17	Uzagroeksport-bank	72,8	23,6	18,1	18,1	7,9	4,9	1,1	8,6	3,4
18	Madad invest bank	146,3	73,7	48,4	32,9	14,3	2,3	7,5	7,4	16,4
19	Orient Finans bank	3 427,6	4 003,9	2 659,6	608,1	263,9	270,8	104,4	170,3	245,0
20	Trast bank	2 243,5	3 913,8	3 672,2	638,6	237,5	208,4	37,1	189,4	313,8
20	Turkiston bank	744,3	927,1	846,8	150,2	44,8	114,6	34,9	29,0	11,2
21	Davr bank	1 296,8	1 501,6	921,5	287,4	70,8	127,2	29,3	67,8	102,5
23	Ravnak bank	444,8	603,4	531,0	76,8	30,9	40,1	9,4	45,2	4,2
24	Xay-Tek bank	243,0	242,7	143,9	43,3	6,6	22,5	3,5	20,5	2,0
25	Anor bank	23,0	5,9	5,8	3,5	1,8	-	0,4	4,7	0,1
26	Xamkor bank	7 249,0	8 984,9	3 527,2	1 546,3	668,9	879,6	234,9	423,6	338,8
27	UzKDB bank	992,7	5 629,9	5 616,9	136,5	64,2	-	19,3	91,1	68,7
28	Savdogar bank	826,3	970,2	660,7	248,6	44,6	176,9	9,6	87,1	14,2
29	Ziraat bank	600,3	796,0	597,2	86,0	43,6	22,5	12,8	28,7	37,6
30	DB Banka Saderat Irana	5,4	34,2	31,8	11,8	2,8	0,2	0,2	3,5	8,4
31	Tibisi bank	0,0	2,2	1,1	9,9	0,5	0,0	1,6	31,3	-22,5
32	Tenge Bank	980,8	1 232,4	106,2	66,8	14,8	16,6	7,1	29,6	22,0
	Jami	276 974,8	307 769,9	114 746,9	37 063,9	11 801,4	23 018,5	3 516,4	8 144,5	5 642,2

2021										
1	O'zmilliybank	74 033,5	75 150,7	22 082,8	6 320,7	2 637,6	3 464,0	276,6	1 050,3	983,3
2	Asaka bank	37 685,4	44 299,5	10 729,3	3 925,9	1 550,1	3 106,1	285,0	587,0	100,4
3	Xalk bank	19 596,0	21 441,8	11 648,8	4 623,1	1 292,9	3 580,3	474,2	1 251,1	- 2 186,8
4	Aziya Alyans bank	1 903,5	2 828,5	2 276,9	441,5	237,8	271,8	73,1	197,1	60,3
5	Poytaxt bank	80,5	238,3	235,1	33,9	13,2	1,1	4,0	21,3	13,0
6	O'zSQB	43 147,8	48 810,4	12 607,3	4 484,2	2 164,3	2 417,3	433,0	1 123,1	998,2
7	Ipoteka bank	29 046,3	34 924,8	15 824,3	4 890,4	1 506,7	2 994,5	363,9	810,8	693,7
8	Agrobank	32 258,2	30 625,0	11 838,9	6 263,1	1 444,9	4 868,5	424,0	1 267,0	404,1
9	Kishlok kurilish bank	17 496,1	18 011,7	6 492,5	2 846,7	389,9	2 098,8	57,0	479,5	319,4
10	Turon bank	8 129,5	9 094,4	2 837,8	994,8	199,8	647,1	35,5	286,9	101,6
11	Mikrokredit bank	10 815,9	11 162,3	3 153,7	2 192,8	548,5	1 567,5	217,9	472,0	38,4
12	Aloka bank	7 754,3	10 965,0	6 796,1	1 206,7	427,2	798,3	212,0	362,6	107,6
13	Ipak yuli bank	6 422,1	7 938,7	4 282,5	1 405,4	677,4	722,5	163,7	514,5	366,3
14	Kapital bank	8 030,2	14 146,8	13 180,4	1 868,5	778,1	1 363,9	226,5	434,1	356,3
15	Invest Finans bank	3 774,4	5 003,9	4 167,6	710,9	329,7	477,0	108,3	242,3	145,4
16	Universal bank	766,7	1 356,6	1 217,0	262,0	114,4	194,2	48,7	89,0	13,1
17	Uzagroeksport-bank	30,1	2,8	1,4	10,9	17,8	1,0	1,7	10,1	-16,7
18	Madad invest bank	168,9	80,5	59,3	41,0	20,1	9,5	6,8	10,1	4,0
19	Orient Finans bank	3 627,0	4 527,5	3 449,2	745,6	345,9	344,0	149,5	188,1	300,0
20	Trast bank	2 744,2	5 739,3	5 447,5	838,7	349,1	247,6	47,4	278,7	450,6
20	Turkiston bank	685,9	1 003,6	886,5	157,3	94,9	129,9	83,3	34,0	2,4
21	Davr bank	2 157,0	2 254,1	1 132,3	438,0	127,4	230,4	70,0	106,0	124,0
23	Ravnak bank	566,8	695,4	633,2	98,3	53,6	50,0	25,0	63,2	6,3
24	Xay-Tek bank	159,9	209,8	131,2	39,5	5,1	17,5	7,8	20,7	-35,5
25	Anor bank	612,5	937,9	831,7	88,7	43,4	54,6	5,5	66,7	2,0
26	Xamkor bank	9 333,6	10 494,6	4 416,2	1 627,9	1 586,2	845,2	1 017,0	589,9	450,9
27	UzKDB bank	1 557,5	6 865,9	6 828,6	155,1	105,8	1,1	31,7	104,7	96,5
28	Savdogar bank	859,4	1 052,3	768,0	241,4	69,2	172,3	12,3	102,9	15,2
29	Ziraat bank	857,7	1 225,3	970,7	116,2	44,2	36,9	11,1	35,1	39,4
30	DB Banka Saderat	14,4	52,6	43,5	13,9	2,8	0,1	0,3	5,2	8,8
31	Tibisi bank	345,0	734,3	724,0	64,2	4,1	39,5	46,8	105,7	-137,2
32	Tenge Bank	1 725,1	2 122,0	495,4	244,3	67,5	43,7	24,8	86,8	60,2
	Jami	326 385,6	373 996,1	156 189,8	47 391,6	17 249,7	30 796,2	4 944,3	10 996,6	3 885,2

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga asosan tijorat banklarining 2019-2021 yillar davridagi moliyaviy ko'rsatkichlari, shu jumladan kredit portfeli, daromadlari, harajatlari va majburiyatlari kesimlarda keltirib o'tilgan. Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyasion bog'liqlikni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kun jahon bank-moliya sektorining katta tezlik bilan o'zgarayotganligi, kundan-kunga inqiroz havf-hatarlarining darajasi tobora ortib borayotganligi sababli O'zbekiston tijorat banklari jahon banklarining transformatsiyadagi tajribalaridan kelib chiqib o'ziga hos rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish zaruriyati ortib bormoqda.

Ma'lumki, jahon bank sektorida transformatsiya borasida lider sifatadi G'arbiy Yevropa va AQSh tijorat banklarini atishimiz mumkin. Biroq, O'zbekiston bank-sektori modelining o'ziga hosligi hamda g'arb mamlakatlariga nisbatan MDH davlatlari bank tizimining o'xshashlik jihatlari ko'pligi, bank xizmatlaridan foydalanuvchi auditoriyaning qadr-qimmatlari, urf-odatlar bir-biriga yaqinligi sababli TBS (Gruziya), Tin'koff (Rossiya) hamda Sberbank (Rossiya) tijorat banklari tajribalarini inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'z navbatida, O'zbekistonda transformatsiya borasida ekspertlarning yetishmasligi sababli horijiy mutaxassislarni jalb qilish zaruriyati mavjud.

Tahlillarga asosan O'zbekiston tijorat banklari transformatsiya jarayonida faol ishtirok etayotgan banklarni rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib ikki guruhga ajratib olindi:

- Konservativ strategiya - Agrobank va Ipotekabank kiritildi. Bu banklar strategiyasida bugungi kunga qadar o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishib kelayotgan yo'nalishlariga ko'proq etibor qaratmoqda.

- Modernizatsiya qilingan strategiya – O'zsanoat qurilish banki va Asaka banklar.

Ushbu ilmiy ishda O'zmilliy bank misolida ishlab shiqilgan transformatsiyani qisman birinchi va qisman ikkinchi guruhga kiritish mumkin.

Shunki, strategiyada innovasion texnologiyalardan foydalangan holda yangi tizimlar tashkil etish hamda amaldagi “korporativ mijoz banki” statusini saqlab qolish nazarda tutildi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan transformatsiya doirasida joriy etilayotgan yangi tizimlar va mahsulotlar aholi uchun bank xizmatlaridan foydalanishda qo'shimsha qulayliklar yaratadi.

Biroq, ushbu joriy etilayotgan mahsulotlarning ayrimlari amaldagi normativ huquqiy hujjatlarda o'z aksini topmagan.

Misol ushun, O'zsanoat qurilish banki tomonidan joriy etilgan bank ekotizimi bank tizimi ushun yangilikdir. Mazkur tizim aholi uchun yangi qulayliklar yaratishi bilan bir qatorda qator xatarlarni keltirib chiqaradi. Misol tariqasida monopolya yoki o'ziga xos monopol muxitni keltirib chiqarish xatarlari hamda mijozning barcha ma'lumotlari, shu jumladan bank tarixi, iste'mol tovarlaridagi tanlovi va boshqa shaxsiy ma'lumotlari faqatgina bir guruh tashkilotga bog'lanib qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aminova, Sh. X. (2020). Raqamli transformasiya va uning banklar faoliyatiga ta'siri. Toshkent: Iqtisodiy taraqqiyot jurnali.
2. Guliev, A. K. (2019). Tijorat banklarining strategik transformasiyasi: xalqaro tajriba va O'zbekistondagi amaliyot. Buxoro davlat universiteti nashri.
3. Петров, В. М. (2021). Институционал трансформация в иқтисодий барқарорлик. Москва: Иқтисодий таҳлил ва ривожланиш институти.
4. Timurxonova, M. A. (2022). Tijorat banklarining raqamli transformasiyasi: nazariy va amaliyot jihatlari. Toshkent: Ekonomika va bank ishlari jurnali.
5. Davies, S., & Jones, R. (2020). Digital Transformation in Sommersial Banking: Global Trends and Implisations. Journal of Banking Innovation, 8(3), 112-129.
6. Anderson, P. (2021). Banking in the Digital Era: Strategies for Transformation. Sambridge University Press.
7. Markaziy bank, O'zbekiston (2023). O'zbekistondagi tijorat banklarining transformasiyasi va innovasion rivojlanishi. Toshkent: Markaziy bank nashri.
8. Kishin, I. M. (2021). Risk Management in the Digital Age: Sase Studies in Banking. Journal of Finansial Risk, 15(2), 55-67.
9. Kim, Y., & Lee, J. (2022). Banking and Digitalization: Somparative Analysis of the Impast of Teshnology on Banking Systems. International Journal of Finanse, 13(4), 234-245.
10. Xu, J. (2019). Strategis Management in the Finansial Sestor: A Sase Study of Digital Transformation. International Business Review, 21(5), 123-145.
11. Ernst&Young Global Bank Risk Management Survey
12. <https://sbu.uz/oz/publications/annual-report/>



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI